

Siqilgan tabiiy gaz sotish va sotib olish

Shartnoma № 49

Shaxrisabz tumani

2022 yil 21 » 01

«KESH STANDART SERVIS» MChJ (bundan buyon- «Bajaruvchi» deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor TURDIYEV NAVRUZBEK NEGMAT O'G'LI bir tomondan va

Shaxrisabz + Obodonlash tiriq boshq (bundan buyon- «Buyurtmachi» deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor J. Turdiyev ikkinchi tomondan, birgalikda «Taraflar», alohida esa «Taraf» deb ataluvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma mazmuni.

1.1. 2022 yilda «Sotuvchi» 3,1 bandda ko'rsatilgan miqdordagi siqilgan tabiiy gazni (ichki yonuv dvigatellari uchun siqilgan tabiiy gaz) ushbu shartnomaga 1 ilova bo'yicha sotadi, «Xaridor» esa sotib oladi,

1.2. Siqilgan tabiiy gazni topshirish-qabul qilish joyi Shaxrisabz tuman M39 yo'l yoqasi Yangiqishloq qishlog'i hududida joylashgan ASGTKS (avtomobillarga siqilgan gaz to'ldirish kompressor stansiyasi) hisoblanadi.

1.4. Topshirilgan-qabul qilingan siqilgan tabiiy gaz miqdori oylik qaydnomaga qayd qilinadi va «Xaridor» ning vakil tomonidan imzo qo'yiladi.

1.5. Oylik qaydnomaga siqilgan tabiiy gazni topshirish-qabul qilish sanasi, avtomashina davlat raqam belgisi, vakilning ismi sharifi to'g'risidagi ma'lumotlar xam kiritiladi..

1.6. Oylik qaydnomaga asosan oy davomida topshirilgan-qabul qilingan siqilgan tabiiy gaz miqdori va summasi elektron schet-faktura bilan rasmiylashtiriladi.

2. Siqilgan tabiiy gazning sifati.

2.1. Sotilayotgan siqilgan tabiiy gaz sifat sertifikatiga ega bo'lishi va sifati bo'yicha GOST 27577-2000 davlat standartiga javob berishi shart.

2.2. «Buyurtmachi» da siqilgan tabiiy gaz sifati uchun e'tirozi bo'lsa «Bajaruvchi» siqilgan gazni namunasini maxsus laboratoriyadan o'tkazish natijasini «Buyurtmachi» ga taqdim etadi.

2.3. Maxsus laboratoriya xulosasiga ko'ra siqilgan tabiiy gazni sifati davlat standarti talablariga javob bermasa ikki tarafdama dalolatnoma tuzilgan holda javobgar tomonga nisbatan yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha da'vo kiritiladi

3. Siqilgan tabiiy gaz narxi va uz'aro xisob-kitob tartibi.

3.1 Shartnomaning umumiy summasi aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga 4.498.200 so'mni tashkil etadi. Shu jumladan:

t/r	Maxsulot nomi	o'lchov birligi	miqdori	narxi	summasi	QQS		Jami summasi
						stavk a	summa	
1	Siqilgan tabiiy gaz	M3	1.764	2550	4.498.200	—	—	4.498.200

Shartnoma bo'yicha siqilgan tabiiy gaz narxi m3 hisobida hisob-kitob qilinadi. Shartnoma tuzilgan davrda 1m3 siqilgan tabiiy gaz narxi gaz aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga 2.550 so'mni tashkil etadi. Siqilgan tabiiy gaz narxiga o'zgartirish kiritish faqat qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi.

3.2. Siqilgan tabiiy gazning narxi qabul qilingan vaqtdagi narxi hisoblanadi. Siqilgan tabiiy gazning qabul qilinishi «Xaridor» ning siqilgan gaz narxiga roziligi hisoblanadi. «Xaridor» ga siqilgan tabiiy gaz narxi ma'qul kelmasa qabul qilishni rad etishi mumkin.

3.3. «Xaridor» siqilgan tabiiy gaz qabul qilinadigan oy uchun shartnomaning 1,1 bandida ko'rsatilgan siqilgan gaz miqdorini 3,1 bandda ko'rsatilgan narx bo'yicha 100 % oldindan tulovni pul ko'chirish orqali amalga oshiradi.

3,4. Siqilgan tabiiy gaz shartnomada ko'rsatilgan narx bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Ortiqcha to'lovlar keyingi oy uchun hisobga olinadi. Ortiqcha to'lovlar "Xaridor" ning talabi bo'yicha qaytarib beriladi.

3.5. Siqilgan tabiiy gaz uchun yuzaga kelgan qarzidorlik "Buyurtmachi" tomonidan 1 oy mobaynida to'lab beriladi.

4. Xuquq va majburiyatlar.

4.1. "Xaridor" siqilgan tabiiy gazni qabul qilayotgan avtomashinasini texnik xolatiga, gaz ballon uskunalaridan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya qilinishiga, uskunalarni o'z vaqtida sinovdan o'tkazilishiga hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi uchun javobgar hisoblanadi.

4.2. "Xaridor" quyidagilar uchun majbur hisoblanadi.

- Gaz ballon o'rnatilgan avtomashinalardan foydalanish qoidalariga amal qilinishini ta'minlash;
- Avtomashina va unga urnatilgan gaz ballonni texnik soz xolatda saqlab turish;
- Gaz ballonni o'z vaqtida sinovdan o'tkazish.
- Xaydovchi gaz ballon uskunolari o'rnatilgan avtomashinalarni boshqarish huquqiga ega bo'lishini ta'minlash;

• 4,3 "Xaridor" avtomashinada o'rnatilgan gaz ballon uskunasini hajmiga nisbatan 85% xolatdan ortiqcha siqilgan gaz to'ldirmasligi kerak;

4,5. "Xaridor" shartnomaning 1,1 bandida ko'rsatilgan siqilgan tabiiy gaz miqdorini to'liq yoki qisman olmaganligi uchun javobgar hisoblanmaydi. Shartnomaning 1,1 bandidan ko'rsatilgan yillik miqdordan ortiqcha siqilgan tabiiy gaz olish qo'shimcha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

4.5 "Sotuvchi" "Xaridor" ning avtomashinasiga siqilgan tabiiy gazni to'ldirishdan oldin qo'yidagilarni amalga oshirish uchun majbur hisoblanadi;

- avtomashina, gaz ballon va uskunolari holatini nazoratdan o'tkazish.
- Gaz ballon uskunasini sinovdan o'tganligini tekshirish
- Xaydovchini gaz ballon uskunasi o'rnatilgan avtomashinalarni boshqarish huquqini beruvchi guvoxnomasiga ega bo'lishini tekshirish.

4.6. "Sotuvchi" "Xaridor" ning texnika, yongin va gaz ballon uskunolari o'rnatilgan avtomashinalarni boshqarish qoidalariga javob bermaydigan avtomashinalar gaz ballonlariga siqilgan tabiiy gaz to'ldirmaslik huquqiga ega.

5. Taraflarning javobgarligi.

5,1. Tomonlar bir-birlariga yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgar hisoblanadi. Da'vogar tomon ushbu shartnoma shartlarini bajarmaslik bo'yicha yetkazilgan zarar uchun javobgar tomonga da'vo kiritish huquqiga ega.

5,2. "Xaridor" olingan siqilgan tabiiy gaz uchun to'lanmay qolgan summani ushbu qarzidorlik yuzaga kelgan vaqtdan boshlab bir oy muddatda to'lab bermasa ushbu muddatdan o'tgan xar bir kun uchun 0,2% miqdorida lekin to'lanmay qolgan summaning 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5,3. "Sotuvchi" olingan to'lovlar uchun siqilgan tabiiy gazni o'z vaqtida yetkazib bermasa yetkazib berilmagan oynning keyingi sanasidan boshlab o'tgan xar bir kun uchun 0,2% miqdorida lekin olingan to'lov summasing 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6. Fors-major xolatlar.

6.1. Xech bir taraf ikkinchi bir taraf oldida uziga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra yengib bo'lmaydigan kuch mavjud bo'lgan (urush, tabiiy ofatlar, xukumatning ta'qiqlovchi qarorlari) holatlarda olingan majburiyatlarni bajara olmasa shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

7. Nizolarni hal qilish.

7,1. Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda UzR fuqarolik kodeksi va "xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

7.2. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar harakatdagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Qashqadaryo viloyat iqtisodiy sud orqali hal qilinadi yoki tomonlarning kelishuviga binoan hakamlar sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

8. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi.

8.1. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tomonlarning roziligiga ko'ra qo'shimcha bitimni rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi bitim u yozma shaklda bo'lgandagina va tomonlar imzolaganlaridagina haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlar uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Shartnoma qonunchilik o'zgariganda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilish mumkin.

9 Boshqa xolalar.

9.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil kuchga ega bo'lib. Ikki nusxada tuzildi. Shartnoma ikkala taraf tomonidan imzolaniib G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va 31 12 2022 yilgacha amal qiladi.

9.2. Shartnoma taraflarda birining taklifi bilan ikkinchi tarafni bir oy oldin ogohlantirilgandan so'ng o'z'aro kelishilgan holda bekor qilinadi, ikkinchi taraf rozilik bermasa iqtisodiy sud orqali bekor qilinadi.

10. Tomonlarning yuridik manzilgohlari va rekvizitlari:

«Bajaruvchi»

«KESH STANDART SERVIS» MChJ

Manzili: Shaxrisabz Yangikishlok

Tel/faks: 0-375-522-00-56

x/r 20208000900235769001

Bank: "Ipakyo'libank" Shaxrisabz f.

MFO: 01048 STIR 302650353

IFUT: 47300

Direktor: N. Turdiev

«Buyurtmachi»

Shahrisabz t. Obodonlash. boshqar.

Manzili Shahrisabz shahar Aspijallob 76

tel/faks 75 522 4038

x/r 1000228601020457065200110004

Bank Toshkent sh Markaziy bank

MFO: 00014 STIR 206933094

IFUT _____

Boshlik: J. Turdiyev

Huquqiy xulosa:

Men _____ huquqshunos maslahatchisi
(lisenziya № _____ « _____ » _____ yil)

mazkur shartnoma loyihasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi moddalari hamda O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-1 sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy- huquqiy bazasi to'g'risida» gi qonuni asosida belgilanganini

ANIQLADIM:

Yuqoridagilarga asoslangan holda shartnoma loyihasini qonun doirasida tuzilgan deb hisoblayman va tomonlarga imzolashni tavsiya etaman.

Huquqiy hulosasi berilgan sana « _____ » _____ yil

Huquqshunos: _____

2022 yil « 21 » 01 kunidagi

№ 49 - sonli shartnomaga
1-sonli ilova

Shaxrisabz tuman "KESH STANDART SERVIS" MChJ tomonidan 2022 yil davomida
Shahrisabz tuman Obodonlashtirish boshqarmasi ga
siqilgan tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha

SPESIFIKASIYA

Oylar	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
Yanvar	M ³	588	2.550	1.499.400
Fevral	M ³	588	2.550	1.499.400
Mart	M ³	588	2.550	1.499.400
1-chorak jami		1.764		4.498.200
April	—	—	—	—
May	—	—	—	—
Iyun	—	—	—	—
2-chorak jami		—	—	—
Iyul'	—	—	—	—
Avgust	—	—	—	—
Sentyabr	—	—	—	—
3-chorak jami		—	—	—
Oktyabr	—	—	—	—
Noyabr	—	—	—	—
Dekabr	—	—	—	—
4-chorak jami		—	—	—
2022 yil jami		1.764		4.498.200



"KESH STANDART SERVIS" MChJ

Direktori:

N.N.Turdiyev.



Shahrisabz t Obodonlashtirish

boshqarmasi boshlig'i

J. Turdiyev.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

1. Loyiyaning turi – shartnoma.

2. Loyiyaning nomi – “KESH STANDART SERVIS” mas’uliyati cheklangan jamiyati va Shahrisabz tuman obodonlashtirish boshqarmasi o’rtasida tuzilgan 4.498.200 (to’rt million turt yuz tuqson sakkiz ming ikki yuz) so’mni tashkil qiladigan siqilgan tabiiy gaz sotish va sotib olish to'g'risida shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana – Shahrisabz tuman obodonlashtirish boshqarmasi, 2022-yil 24-yanvar.

4. Loyiha bo’yiicha taklif va (yoki) e’tirozlar: yuq

XULOSA: Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Shahrisabz tuman yuridik xizmat ko’rsatish
markazi bosh yuriskonsulti**



F.F.Karimov

2022-yil 27-yanvar

O'ZB. RESP.
QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRIABZ TUMANI
«KESH STANDART
SERVIS»
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN
JAMIYATI

№ 3

20. y
181306, SHAHRISABZ T.
YANGIQISHLOQ Q.

Shahrisabz tumani
Obodonlashtirish boshqarmasi

TIJORAT TAKLIFI.

Shahrisabz tumani Yangiqishloq qishlog'i hududida tashkil etilgan «KESH STANDART SERVIS» ma'suliyati cheklangan jamiyati avtotransport vositalarini siqilgan va suyultirilgan gaz yoqilg'isi bilan ta'minlash maqsadida iqtisodiy hamkorlikka taklif qiladi. Jamiyatimizga tegishli «Avtotransport vositalariga suyultirilgan gaz to'ldirish va siqilgan gaz quyish kompressor stansiyasi»da avtotransport vositalariga siqilgan gaz yoqilg'isi bilan to'ldirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Siqilgan gaz uchun Sizning tashkilotingizga quyidagi narxni taklif etamiz.

T/r	Mahsulot nomi	Ulchov birligi	Narxi (sum)
1	Siqilgan tabiiy gaz	m3	2550 (ikki ming besh yuz ellik)

IZOH: Siqilgan gaz uchun taklif etilayotgan narx o'zgarishi mumkin.

Buyurtmalaringizni quyidagi manzilga takdim etishingiz mumkin.

Shahrisabz tumani Yangiqishloq qishlog'i

Murojaat uchun telefonlar:

75 -522-00-56,

(Faoliyat turi lisenziyalangan. Raqami AV № 0053)

Sizni iqtisodiy hamkorlarimiz safida ko'rishdan mamnun bulamiz!

«KESH STANDART SERVIS» MCHJ

direktori



N.Turdiev

Юридик шахсни кайта давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида

ГУВОҲНОМА

Реестр тартиб рақами –11066
2015 й. "15" апрел

№ – 0011066-K


Мазкур гувоҳнома юридик шахс "**KESH STANDART SERVIS**" mas'uliyati cheklangan jamiyati

(Юридик шахс бўлган деҳқон хўжаликлари, фермер хўжаликлари учун ажратилган ер участкаси ва унинг майдони кўрсатилган) берилган

Мулкчилик шакли :	МШ 142
Ташкилий ҳуқуқий шакли :	ТХШ 1152
Тармоқ коди :	ХХТУТ 71211
Почта манзили :	МХОБТ 1710245
Юридик шахс коди :	КТУТ 24431383
Солиқ тўловчининг идентификацион рақами:...	СТИР 302650353


Қўшимча маълумотлар:

Изоҳ: илгари ТСРУИдан 2013 йил 01 июл 11066-сонли реестр рақами билан давлат рўйхатдан утган "**KESH STANDART SERVIS**" ШКнинг мол-мулклари негизда ажратиб чиқариш шаклида қайта ташкил этилган.



Илгари давлат рўйхатдан утган "Тадбиркорлик субъектларини рўйхатдан ўтказиш инспекцияси бошлиғи :

[Signature] Т.ҒОҒУРОВ





Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш давлат инспекцияси "Ўздавнефтвазинспекция"

ЛИЦЕНЗИЯ

АА № 0053

Мазкур лицензия билан "KESH STANDART SERVIS"
(лицензия эгасининг тўлиқ номи)
масъулияти чекланган жамияти

_____ га
Қашқадарё вилояти, Шаҳрисабз тумани, "Кунчиқар" қ.ф.й., Янгиқишлоқ
(рухсат этилган фаолият тури)
қишлоғида жойлашган АГТКШ орқали сиқилган табиий газни ва АГҚШ орқали
суюлтирилган углеводород газини сотиш _____ билан
шугулланишга рухсат этилади.

Лицензия эгасининг жойлашган жойи (почта манзили): Қашқадарё вилояти,
Шаҳрисабз тумани, "Кунчиқар" қ.ф.й., Янгиқишлоқ қишлоғи


Лицензия эгасининг солиқ тўловчи сифатидаги идентификация рақами: 302 650 353

Лицензия берилган сана: 2018 й. 20 июль

Лицензиянинг амал қилиш муддати беш йил

Реестр бўйича тартиб рақами: № 48

Ваколатли шахс: Н. Агзамов
(исми шафи, фамилияси)



(имзоси)



Лицензиянинг амал қилиш муддати _____ й. _____ гача
узайтирилди.

Ваколатли шахс: _____
(исми шафи, фамилияси) _____ (имзоси)

М.Ў.



Лицензиянинг амал қилиш муддати _____ й. _____ гача
узайтирилди.

Ваколатли шахс: _____
(исми шафи, фамилияси) _____ (имзоси)

М.Ў.